“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=346

2026-yil
1-son
yanvar
ISSN 3093-8546



O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimi

Xolmuhammad Abdurasulov,
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi
tayanch doktoranti
e-mail: abdurasulovandu@mail.ru

Аннотация. Ushbu maqolada inson huquqlarini muhofaza qilish va ta’minlash sohasida faoliyat yurituvchi davlat organlarining umumiy tavsifi berilgan hamda ularning faoliyati qonunchilik asosida huquqiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari siyosatining asosiy mazmuni davlat organlari faoliyati misolida yoritilgan. Inson huquqlarini himoya qilishga oid konstitutsiyaviy tamoyillar, davlat organlarining vakolatlari hamda ularning o‘zaro hamkorlik mexanizmlari huquqiy-nazariy jihatdan ochib berilgan. Qolaversa, inson huquqlarini kafolatlashda Prezident instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va boshqa davlat organlarining o‘rni va funksional ahamiyatini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, ushbu institutlar faoliyatida milliy va xalqaro huquq normalarining uyg‘unlashuvini muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada inson huquqlari siyosatining institutsional evolyutsiyasi jarayonida davlat boshqaruvining markazlashuvdan muvofiqlashtirilgan hamkorlik modeliga o‘tish tendensiyalari yoritilgan hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi baholangan.

Калит сўзлар. inson huquqlari, davlat siyosati, konstitutsiyaviy tamoyillar, milliy institutlar tizimi, milliy strategiya, huquqiy mexanizm, xalqaro majburiyatlar, Oliy Majlis, Prezident instituti, davlat organlari

Аннотация. В данной статье дана общая характеристика государственных органов, осуществляющих деятельность в сфере защиты и обеспечения прав человека, а также проведен теоретико-правовой анализ их деятельности на основе законодательства. В исследовании также освещается основное содержание политики в области прав человека в Республике Узбекистан на примере деятельности государственных органов. Конституционные принципы защиты прав человека, полномочия государственных органов и механизмы их взаимодействия раскрываются с правовой и теоретической точки зрения. Кроме того, с научной точки зрения анализируется роль и функциональное значение института Президента, Олий Мажлиса, Кабинета Министров и других государственных органов в гарантировании прав человека, обсуждается гармонизация норм национального и международного права в деятельности этих институтов. Также в статье освещаются тенденции перехода государственного

управления от централизации к модели скоординированного сотрудничества в процессе институциональной эволюции политики в области прав человека, а также оценивается эффективность реформ, проводимых в этом направлении.

Ключевые слова. права человека, государственная политика, конституционные принципы, система национальных институтов, национальная стратегия, правовой механизм, международные обязательства, Олий Мажлис, институт Президента, государственные органы

Annotation. This article provides a general description of state bodies operating in the field of protection and ensuring human rights, and their activities are analyzed from a legal and theoretical perspective based on legislation. The study also highlights the main content of human rights policy in the Republic of Uzbekistan using the example of the activities of state bodies. The constitutional principles of human rights protection, the powers of state bodies, and the mechanisms of their interaction are revealed from a legal and theoretical point of view. In addition, the role and functional significance of the institution of the President, the Oliy Majlis, the Cabinet of Ministers, and other state bodies in guaranteeing human rights will be analyzed from a scientific point of view, and the harmonization of national and international legal norms in the activities of these institutions will be discussed. The article also highlights the trends in the transition of public administration from centralization to a model of coordinated cooperation in the process of institutional evolution of human rights policy and assesses the effectiveness of the reforms carried out in this direction.

Keywords. human rights, state policy, constitutional principles, system of national institutions, national strategy, legal mechanism, international obligations, Oliy Majlis, institution of the President, state bodies

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish sohasidagi davlat siyosati bosqichma-bosqich shakllanib, bugungi kunda tizimli, ko‘p pog‘onali institutsional tuzilma holiga keldi. Inson huquqlari g‘oyasi nafaqat konstitutsiyaviy tamoyil, balki davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi va fuqarolik jamiyati faoliyatining uzviy elementi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”[1] deb belgilangan. Ushbu norma inson huquqlarini himoya qilish va ularni davlat siyosatining markaziga qo‘yish g‘oyasining konstitutsiyaviy ifodasidir. Shuningdek, 54-moddada “Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi”[2] degan norma mustahkamlangan bo‘lib, bu butun huquqiy tizimning, jumladan, davlat boshqaruvi, sud-huquq organlari va milliy institutlarning faoliyat yo‘nalishini belgilovchi asosiy prinsip hisoblanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shu bilan birga ushbu konstitutsiyaviy normalar inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan barcha davlat organlari faoliyatining poydevorini tashkil etadi hamda O‘zbekistonning xalqaro huquqiy majburiyatlari bilan uzviy bog‘liq huquqiy tizimning shakllanishiga zamin yaratadi.

Davlatning inson huquqlarini ta’minlashdagi institutsional mexanizmi bir nechta asosiy komponentlardan iborat bo‘lib, ularning har biri huquqiy davlat barpo etish jarayonida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Bular – davlat boshqaruv organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda milliy institutlardir. Ular o‘zaro funksional bog‘liq bo‘lib, huquqiy siyosatni ishlab chiqish, uning ijrosini ta’minlash va jamoatchilik hamda mustaqil nazorat mexanizmlarini amalga oshirish orqali yagona tizimni hosil qiladi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasida davlat organlarini uchta turga bo‘lib o‘rganamiz.

1. Davlat boshqaruv organlari. O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat hisoblanadi. Shu bois, mustaqillikdan keying davrda mamalakatda inson huquqlari ta’minlash bo‘yicha yaxlit davlar tizimi shakllantirildi. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish siyosatining konstitutsiyaviy asosini davlat hokimiyatining oliy boshqaruv organlari – Prezident, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralar tashkil etadi. Ushbu institutlar inson huquqlarini kafolatlashga doir siyosatning strategik, normativ va ijro mexanizmlarini shakllantiruvchi markaziy tizim sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur tizimda davlat boshqaruvi organlari muhim o‘rin egallaydi: Oliy Majlis demokratik huquqlarni kafolatlovchi qonunlarni qabul qiladi hamda hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

Prezident va Vazirlar Mahkamasi esa inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyalar va davlat dasturlarini tasdiqlab, ularning samarali ijrosini ta’minlaydi. Davlat boshqaruvi idoralari xalqaro inson huquqlari bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan ham mas’ul bo‘lib, tegishli vazirlik va qo‘mitalar (Adliya, Tashqi ishlar va boshqalar) milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, davlat xizmatchilarining huquqiy savodxonligini oshirish kabi jarayonlarda ishtirok etadi.

Hozirgi bosqichda inson huquqlari sohasida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, barcha darajadagi idoralar faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur boshqaruv organlari O‘zbekistonda “inson huquqlari boshqaruvining “vertikal ko‘p pog‘onali modeli”ni tashkil etadi. Bu modelda Prezident – strategik yo‘nalishlarni belgilovchi siyosiy markaz, Oliy Majlis – huquqiy me’yorlarni yaratib beruvchi normativ organ, Vazirlar Mahkamasi esa – ushbu siyosatni amaliyotga tatbiq etuvchi ijro mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu orqali inson huquqlarini ta’minlash masalasi davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasida taqsimlangan, ammo o‘zaro muvofiqlashtirilgan funksional tizim ko‘rinishida shakllangan[3:12-20].

Birinchidan, ***Prezident instituti*** inson huquqlarini kafolatlovchi oliy siyosiy organ sifatida harakat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta’minlash siyosatining markazida Prezident instituti turadi. Prezident — davlat

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

boshlig‘i sifatida Konstitutsiyaning 105-moddasiga[4:] muvofiq, davlat hokimiyati tizimining muvofiqlashtiruvchi bo‘g‘ini va inson huquqlari hamda erkinliklarini kafolatlovchi oliy mansabdor shaxs hisoblanadi. Shu jihatdan, Prezident faoliyati inson huquqlarini himoya qilish siyosatini ishlab chiqish, huquqiy islohotlarni yo‘naltirish hamda ularning ijrosini nazorat qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikdan keyingi davrda, ayniqsa 2016-yildan boshlab, Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida inson huquqlarini ta’minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “Harakatlar strategiyasi”da[5] bu borada konseptual burilish yasab, “inson manfaatlarini ustuvor qilish” tamoyilini davlat boshqaruvi va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirdi. Ushbu strategiyada sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolarning shikoyat va murojaatlarini ochiq eshitish mexanizmini joriy etish, ommaviy axborot vositalarining erkinligini kengaytirish kabi yo‘nalishlar belgilandi.

Prezident faoliyatida inson huquqlarini kafolatlashning institutsional mexanizmlari ham mustahkamlanmoqda. Jumladan, 2020-yilda Prezident huzurida Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiyani ishlab chiqish komissiyasi tashkil etilib, 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo‘yicha strategiyasi[6] tasdiqlandi. Ushbu hujjat inson huquqlari sohasida xalqaro standartlarni milliy siyosatga integratsiya qilish, Ombudsman institutining mustaqilligini kuchaytirish, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni tizimlashtirishni nazarda tutadi.

Prezidentning inson huquqlariga oid farmon va qarorlari nafaqat normativ-huquqiy baza sifatida, balki institutsional o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ham ahamiyatlidir.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Prezident faoliyati doirasidagi inson huquqlarini ta’minlash siyosati markazlashgan, lekin inklyuziv boshqaruv modeliga asoslanadi. Bu modelda Prezident tashabbuslari orqali islohotlar yuqoridan pastga yo‘naltiriladi, biroq ularning samarasi fuqarolik jamiyati, nodavlat tashkilotlar va xalqaro institutlar bilan hamkorlik mexanizmlariga tayanadi. Natijada, davlat boshqaruvi “avtoritar modernizatsiya” bosqichidan “koalitsion hamkorlik” bosqichiga o‘tish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Shunday qilib, O‘zbekiston Prezidenti inson huquqlarini kafolatlovchi asosiy siyosiy institut sifatida nafaqat davlat hokimiyati tarmoqlarining muvozanatini ta’minlaydi, balki inson qadrini oliy qadriyat sifatida ilgari suruvchi normativ, tashkiliy va mafkuraviy platformani shakllantiradi. Bu esa O‘zbekistonning demokratik, huquqiy va insonparvar davlat sifatidagi konstitutsiyaviy maqomini amalda mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, ***Oliy Majlis*** inson huquqlarini huquqiy jihatdan kafolatlashda normativ-huquqiy mexanizm vazifasini bajaradi. Parlament tomonidan inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlovchi ko‘plab qonunlar qabul qilinmoqda, jumladan “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi (2008), “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi (2021), “Gender tenglik to‘g‘risida”gi (2019) qonunlari. Shuningdek, Oliy Majlis huzurida Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) institutining faoliyati ham parlament nazorati tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. **Parlamentning inson huquqlarini himoya qilish va targ‘ib qilishdagi asosiy funksiyalari**

quydagilardan iborat.

1. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilishdagi ishtiroki. Parlament xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish orqali inson huquqlariga bo‘lgan sodiqligini xalqaro hamjamiyatga namoyon etadi[8:113]. Bu jarayon huquqiy majburiyatlarning milliy darajada amal qilinishini ta’minlaydi hamda xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun zarur qonuniy asoslar yaratadi. Parlament xalqaro shartnomalarni ko‘rib chiqishda ularning ratifikatsiyasi davlat manfaatlariga zid emasligini tekshiradi, ularni qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqadi va xalqaro normalarni milliy qonunchilikka moslashtirishda bevosita ishtirok etadi.

2. Xalqaro huquqiy majburiyatlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish. Xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilikda qo‘llanishi ikki asosiy tizim – monistik va dualistik tizim asosida amalga oshiriladi[9:116]. O‘zbekiston dualistik tizimga amal qiladi, bu esa xalqaro shartnomalar milliy qonun hujjatlari orqali ratifikatsiya qilinmaguncha bevosita kuchga ega emasligini anglatadi. Parlament xalqaro standartlarga mos ravishda qonunlar qabul qilish orqali xalqaro huquqiy majburiyatlarning samarali ijrosini ta’minlaydi va ularni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi.

3. Inson huquqlarining kafolatlanishi uchun byudjet nazorati. Parlament inson huquqlarining amaliyotda ro‘yobga chiqishini kafolatlash uchun davlat byudjeti ustidan nazoratni amalga oshiradi[10:119]. Budjet inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarni moliyalashtirishda, masalan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy himoya sohalariga ajratiladigan mablag‘lar taqsimotida asosiy o‘rin tutadi. Parlament ushbu resurslar yetarli va maqsadli ishlatilishini, inson huquqlariga oid xalqaro majburiyatlarning moliyaviy asosda ta’minlanishini tekshiradi hamda tegishli hisobotlarni so‘raydi.

4. Ijro etuvchi hokimiyat ustidan parlament nazorati. Parlament a’zolari ijro etuvchi hokimiyat, xususan, hukumat va boshqa organlarning inson huquqlari sohasidagi faoliyati ustidan doimiy parlament nazoratini o‘rnatadi[11:121]. Bu nazorat deputatlik so‘rovlari, tergov komissiyalari, eshituvlar va parlamentda muhokamalar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, parlament tavsiyalar va qarorlar orqali ijroiya hokimiyatni inson huquqlarini buzilish holatlariga javobgarlikka tortish yoki vaziyatni tuzatishga undaydi.

5. Mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda monitoring. Parlament inson huquqlarini targ‘ib qilishda xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT va uning maxsus tuzilmalari, Yevropa kengashi, YXHT kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaydi[12:121]. Parlament vakillari xalqaro inson huquqlari bo‘yicha hisobotlarni ko‘rib chiqishda, ularning tavsiyalarini milliy siyosatga integratsiyalashda, shuningdek, bu tavsiyalar ijrosini monitoring qilishda faol ishtirok etadi. Bu esa parlament faoliyatini xalqaro mezonlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

6. Xalqaro tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish va institutsional muvofiqlikni ta’minlash. Parlament nafaqat qonun chiqarish balki xalqaro inson huquqlari tashkilotlarining tavsiyalarini milliy amaliyotga tatbiq etish, ularning ijrosini muvofiqlashtirish, zarur qonunchilik va institutsional o‘zgarishlarni targ‘ib qilish orqali inson huquqlari kafolatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi[13:121]. Bu, ayniqsa, BMT, Yevropa ittifoqi va boshqa xalqaro tuzilmalar tomonidan berilgan tanqidiy yoki ijobiy tavsiyalarga nisbatan

parlament reaktsiyasi orqali ifodalanadi.

Parlamentning inson huquqlariga rioya etilishini muhokama qilish vakolatiga ega Universal davriy hisobotni taqdim etish to‘g‘risidagi BMT Bosh Assambleyasining A/RES/60/251-sonli rezolyutsiyasi, inson huquqlari sohasidagi idoralar faoliyatini nazorat qilishda parlamentlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi[14:124]. Shu munosabat bilan, hisobot tayyorlash va taqdim etish mexanizmi ishlab chiqilgan mamlakatlarda parlament faoliyati muhim ta’sir ko‘rsatadi. Parlamentlarning hisobotlarni tayyorlashdagi ishtiroki haqidagi ma’lumotlar Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Komissarning Boshqarmasi tomonidan yig‘ilmoqda va BMTning rasmiy veb-saytida (qarang: Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Komissarning Boshqarmasi tomonidan tayyorlangan 26/29-sonli hisobot) e’lon qilingan.

Parlament organlari va deputatlar inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarning milliy darajada qo‘llanilishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Inson huquqlari bo‘yicha universal va mintaqaviy mexanizmlarga doir xalqaro hisobotlarni tayyorlash, muhokama qilish va baholashda parlament vakillari faol qatnashmoqda. Xususan, Universal davriy hisobot (UDH) jarayonida davlatning BMT Inson huquqlari kengashiga taqdim etiladigan ma’ruzasi va unga javoban boshqa davlatlar tomonidan bildiriladigan tavsiyalar ijrosini ta'minlashda parlament vakillarining roli beqiyosdir.

Parlamentlar UDH jarayonining barcha bosqichlarida: milliy maslahatlashuv, hisobot tayyorlash, xalqaro muhokama, tavsiyalarni amalga oshirish hamda monitoring qilish kabi yo‘nalishlarda ishtirok etadi. Bu ishtirok parlament vakolatini mustahkamlash, xalqaro majburiyatlar ijrosini ta’minlashda hisobdorlikni oshirish, shuningdek, inson huquqlari borasida davlat ichidagi sektorlararo hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Misol tariqasida, Meksika parlamentining UDH bo‘yicha faoliyati ijobiy tajriba sifatida ko‘rsatiladi. Mazkur mamlakatda parlament har bir bosqichda ishtirok etib, senator darajasida BMTdagi taqdimotlarda qatnashgan, hisobotni ishlab chiqishda fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qilgan hamda xalqaro tavsiyalarni milliy qonunchilikka integratsiya qilishni ko‘zda tutgan.

Parlament deputatlari inson huquqlari muammolariga jamoatchilik e’tiborini jalb qilishda ham faoldirlar[15:126-131]. Ular inson huquqlari bo‘yicha dolzarb masalalar yuzasidan parlament tinglovlari, davra suhbatlari, ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka murojaat etish, mahalliy darajadagi tashriflar orqali aholi muammolarini o‘rganish, shuningdek, fuqarolik jamiyati bilan muloqotda bo‘lish orqali ijtimoiy fikr shakllanishiga hissa qo‘shadilar.

Parlament a’zolari shuningdek, xalqaro darajadagi sammitlar, simpoziumlar va xalqaro tashkilotlar yig‘ilishlarida ishtirok etib, o‘z mamlakati nomidan inson huquqlari bo‘yicha pozitsiyani ifoda etadilar. Bu ishtirok davlatning inson huquqlari borasidagi obro‘-e’tiborini belgilovchi omillardan biridir.

Deputatlar hisobotlar asosida hukumatga tavsiyalar berish, xalqaro shartnomalarga qo‘shilish yuzasidan tashabbus bildirish va qonunchilikka inson huquqlarini mustahkamlovchi normativlarni kiritish orqali ham faoliyat yuritadilar. Bu esa davlatning hisobdorligini oshirish, parlament nazoratini kuchaytirish va inson huquqlari madaniyatini rivojlantirishda muhim vositadir.

Uchinchidan, ***Vazirlar Mahkamasi*** inson huquqlari siyosatini amalga oshiruvchi asosiy ijro organidir. U hukumat darajasida inson huquqlariga oid

milliy strategiyalarni tasdiqlaydi, ularning bajarilishini nazorat qiladi hamda tegishli idoralar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiradi. Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari inson huquqlarini amaliy kafolatlash, jumladan ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va mehnat munosabatlarida xalqaro standartlarni tatbiq etishga qaratilgan. Ijro hokimiyati davlat boshqaruvi tizimining asosiy tarmog‘i sifatida inson huquqlarini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu organlar konstitutsiyaviy va qonuniy normalarni amaliyotda ijro etish orqali fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini ro‘yobga chiqaradi. Inson huquqlarining real hayotda himoya qilinishi ko‘p jihatdan ijro hokimiyati organlarining mas’uliyatli, shaffof va samarali faoliyatiga bog‘liqdir.

Mazkur hokimiyat vakillari qonun hujjatlarini bajarish, ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish, xavfsizlik va tartibni saqlash, shuningdek, fuqarolar ehtiyojlarini aniqlash va ularga javob qaytarish orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘lovchi vazifani bajaradi. Shu sababli ijro hokimiyati organlarining inson huquqlari sohasida bilim va malakasini oshirish, ularga monitoring va hisobot berish tizimini joriy etish huquqiy islohotlarning ajralmas qismidir.

Bundan tashqari, ijro hokimiyati xalqaro huquqiy majburiyatlar doirasida, xususan BMT, Yevropa ittifoqi va boshqa tashkilotlar oldida hisobot tayyorlash va tavsiyalarni bajarish mexanizmlarida bevosita ishtirok etadi. Bu orqali davlatning xalqaro miqyosdagi inson huquqlari reytingi va ishonchliligi oshadi. Shu jihatdan ijro hokimiyati nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham inson huquqlarini targ‘ib qilish va himoya qilishda markaziy aktorga aylanadi.

Nihoyat, ***Adliya vazirligi*** bu tizimning huquqiy bazasini mustahkamlovchi asosiy organ sifatida e’tirof etiladi. U inson huquqlariga doir qonun loyihalarini ishlab chiqish, xalqaro shartnomalar normalarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish, shuningdek huquqiy madaniyatni oshirish bo‘yicha kompleks dasturlarni amalga oshiradi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy ma’lumotlari, nhrc.uz). Vazirlik shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda milliy hisobotlarni tayyorlash va xalqaro majburiyatlarning bajarilishini muvofiqlashtirish vazifasini ham bajaradi.

Davlat boshqaruv organlari inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish borasida ham faol ish olib bormoqda. O‘zbekiston bugungi kungacha inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning ijrosi yuzasidan BMT Inson huquqlari bo‘yicha Kengashi hamda shartnomaviy qo‘mitalarga muntazam milliy hisobotlar taqdim etib kelmoqda. Xalqaro tavsiyalarni bajarish maqsadida “yo‘l xaritalari” qabul qilinib, ularning ijrosi tegishli idoralar tomonidan Milliy strategiya doirasida amalga oshirilmoqda. Bunday tashabbuslar davlat boshqaruvi darajasida inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan izchil siyosatning mahsuli hisoblanadi.

Ijro etuvchi hokimiyat tizimida fuqarolarning murojaatlari va huquqlarini ta’minlashga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etildi. Jumladan, Prezidentning Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonalari fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish orqali ularning murojaatlarini bevosita ko‘rib chiqish hamda buzilgan huquqlarni tiklash bo‘yicha samarali institutga aylangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining hududlardagi tadbirkorlar uchun maxsus qabulxonalari tashkil etilib, ular tadbirkorlik

subyektlarining huquqlarini buzuvchi muammoli masalalarni hal qilish, turli byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish orqali biznes vakillarining huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu tariqa, davlat boshqaruvi organlari darajasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va yangi tashkiliy tuzilmalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, birinchi darajadagi boshqaruv organlari inson huquqlarini ta’minlash siyosatining normativ, tashkiliy va strategik uchlik tizimini shakllantiradi. Bu tizimda siyosiy qarorlar yuqoridan belgilanadi, lekin ularning amaliy natijasi fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda yuzaga chiqadi. Shu jihatdan, O‘zbekiston modeli inson huquqlarini ta’minlashda “davlat markazli – ijtimoiy sheriklik asosidagi” boshqaruv paradigmasi sifatida tavsiflanadi.

Inson huquqlarini ta’minlash bu Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarning amalda real ishlashi uchun davlat tomonidan tashkil etiladigan tashkiliy-huquqiy mexanizmlar majmuyidir. H.Steiner, P.Alstonlarning ta’kidlanishicha, huquqlarni ta’minlash jarayoni faqat normativ kafolatlar bilan cheklanmay, balki ularning ijtimoiy amaliyotga real tatbiq etilishiga bog‘liqdir[16]. Shu ma’noda davlat organlarining o‘zaro hamkorligi mazkur jarayonning markaziy omiliga aylanadi.

2. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar esa inson huquqlarini real himoya qilishning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Ularning faoliyati “sud hokimiyatining mustaqilligi” va “odil sudlov” prinsiplariga asoslanib, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan.

Sud va huquqni muhofaza qilish organlari tizimi inson huquqlarini kafolatlashda adolat, qonun ustuvorligi va mustaqillik prinsiplariga tayangan holda faoliyat yuritadi. Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud, fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sudlar fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash, davlat organlari ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqish hamda normativ hujjatlarning konstitutsiyaviyligini baholash orqali inson huquqlarining huquqiy kafolatini ta’minlaydi[17:]. Prokuratura organlari esa inson huquqlarini buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik, qonunlarning ijrosini nazorat qilish va fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan prokuror nazoratini amalga oshiradi[18].

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar ichida prokuratura va ichki ishlar organlari alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi qonuniylik ustidan nazorat qiluvchi organ bo‘lib, u nafaqat davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlash, balki inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlaridan himoya qilish bo‘yicha ham muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Prokuratura organlari huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyat ishlarini tergov ustidan nazorat o‘rnatish hamda sud qarorlarining qonuniy ijrosini ta’minlash orqali ham fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi. Ichki ishlar organlari esa jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki hamda huquqlarini jinoyatchilikdan va boshqa huquqbuzarliklardan himoya qilish kabi keng vazifalarni amalga oshiradi[19]. Xususan, politsiya jinoyatchilikning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni tez va to‘liq ochish, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash kabi funksiyalarni bajarib, shaxsiy xavfsizlik va mulkiy huquqlarni himoya qilishda bevosita ishtirok etadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ichki ishlar organlari fuqarolarning xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bir qatorda, inson huquqlarining bevosita amaliy himoyachilari sifatida ham faoliyat yuritadi[20:7]. Ularning asosiy funksional vazifalari jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash hamda huquqiy yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, ushbu jarayonlarning barchasi insonning sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat tamoyiliga tayanadi[21].

So‘nggi yillarda ichki ishlar organlarining xizmat faoliyati inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarga yaqinlashtirilmoqda. Xususan, tergov, so‘roq va ushlab turish amaliyotida qiynoq va noqonuniy muomala holatlarining oldini olishga doir profilaktik choralar kuchaytirildi. Ichki ishlar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida inson huquqlari, gender tenglik, bolalar huquqlari, va migratsiya bilan bog‘liq masalalar ustuvor mavzular sifatida kiritilmoqda[22]. Bu orqali xodimlarning huquqiy savodxonligi va axloqiy yondashuvi takomillashtirilmoqda.

Amaliy jihatdan ichki ishlar tizimida xizmat nazoratining kuchaytirilgani, fuqarolar murojaatlariga tezkor va qonuniy javob berish tizimi joriy etilgani, “Xavfsiz shahar”, “e-nomzod” va “e-IIB” singari elektron axborot tizimlar orqali ochiqlikni ta’minlash choralari inson huquqlari sohasidagi shaffoflikni oshirmoqda[23]. Shu bilan birga tergov hibsxonalari va vaqtincha saqlash joylarida jamoatchilik nazorati instituti shakllantirilmoqda[24]. Bu esa fuqarolarning huquqlarini muhofaza qilishda institutlarning mas’uliyatini oshiradi va insonparvar yondashuvga asoslangan huquqni muhofaza qilish muhitini kuchaytiradi.

Huquqni muhofaza qiluvchi tizimda adliya organlari va advokatura instituti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adliya vazirligi odil sudlov faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan ta’minlash, davlat boshqaruvi va sud-huquq sohasini erkinlashtirishga doir islohotlar ijrosini muvofiqlashtirish kabi vazifalarni ado etadi. An’anaviy tarzda adliya organlari huquqni qo‘llovchi va nazorat qiluvchi organlar qatoriga kiradi hamda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash borasida muhim o‘rin tutadi. Adliya vazirligi tizimi tomonidan qonunlarning ijro etilishini nazorat qilish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotini doimiy tahlil qilib borish tizimi joriy etilgan. Jumladan, Vazirlik ishtirokida tadbirkorlar va xususiy mulkdorlar huquqlarini himoya qiluvchi samarali mexanizmlar yaratilib, fuqarolar va investorlarga qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qulay huquqiy muhit shakllantirilgan. Advokatura instituti esa odil sudlovdan tashqari huquqiy himoya vositasi sifatida yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Advokatlar palatasi va advokatlik faoliyatining hududiy tuzilmalari shakllantirilib, aholi uchun malakali yuridik yordam ko‘rsatish tizimi takomillashtirilgan. Natijada advokatura vakolatlarining kengayishi inson huquq va erkinliklarini suddan tashqari himoya qilish imkoniyatlarini oshirmoqda. Bu o‘z navbatida kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga xizmat qilmoqda.

3. Inson huquqlarini himoya qilishning mustaqil mexanizmlari sifatida milliy institutlar tizimi. Inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish sohasidagi milliy institutlar – ya’ni davlat inson huquqlari bo‘yicha maxsus organlari milliy mexanizm tarkibida alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimi tarkibiga asosan quyidagilar kiradi:

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) va Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi. Ushbu institutlar o‘z vakolatlari doirasida inson huquqlarini targ‘ib etish, himoya qilish hamda bu sohada davlat va jamiyat mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu institutlar xalqaro inson huquqlari mexanizmlariga muvofiq tarzda tashkil etilgan bo‘lib, ularning faoliyati “Parij tamoyillari” asosida mustaqillik, hisobdorlik va oshkoralik tamoyillariga tayangan. Mazkur tizim inson huquqlarini himoya qilishning ko‘p darajali modelini shakllantirgan bo‘lib, unda davlat hokimiyatining uch tarmog‘i, huquqni muhofaza qilish organlari va jamoatchilik institutlari o‘zaro hamkorlikda harakat qiladi. Shu bois, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda O‘zbekiston inson huquqlari tizimi “institutsional-pluralistik model” sifatida baholanmoqda[24:118-121]. Bu model inson huquqlarini faqat huquqiy kafolat emas, balki ijtimoiy boshqaruvning integral qismi sifatida e’tirof etish g‘oyasini amalda ifodalaydi.

Ilmiy nuqtai nazardan, ushbu uch darajali tizim O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlashning integratsiyalashgan modelini ifodalaydi. Ya’ni, siyosiy qarorlar qabul qilish (strategik daraja), ularni amaliyotda qo‘llash (ijro darajasi) va huquqiy nazorat (institutsional daraja) o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik inson huquqlarini kafolatlashning barqaror mexanizmini yaratadi.

Mazkur tizimning shakllanishi va takomillashuvi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy majburiyatlarini bajarish, BMT, YXHT va Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli, inson huquqlarini ta’minlash tizimi davlat suvereniteti va xalqaro integratsiya o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlovchi muhim element sifatida qaraladi.

Inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish sohasidagi milliy institutlar – ya’ni davlat inson huquqlari bo‘yicha maxsus organlari milliy mexanizm tarkibida alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimi tarkibiga asosan quyidagilar kiradi: Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) va Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi. Ushbu institutlar o‘z vakolatlari doirasida inson huquqlarini targ‘ib etish, himoya qilish hamda bu sohada davlat va jamiyat mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) instituti 1995-yildan faoliyat yuritib kelayotgan mustaqil inson huquqlari instituti hisoblanadi. Ombudsman fuqarolarning huquq va erkinliklariga oid milliy qonunchilik ijrosini nazorat qilish, mansabdor shaxslar va idoralar tomonidan huquqlarga rioya etilishini parlament nomidan monitoring qilish vakolatiga ega mansabdor shaxsdir. U o‘z vakolatlarini davlat organlari va mansabdor shaxslardan mustaqil tarzda amalga oshiradi hamda Oliy Majlis palatalariga hisobdordir[25]. Ombudsman fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish, ularning buzilgan

huquqlarini tiklash bo‘yicha tavsiyalar berish va tegishli idoralarga ta’sirchan choralar ko‘rishni tavsiya etish kabi funksiyalarni bajaradi. Mazkur institut sud va prokuratura orqali himoya qilish imkoniyatlarini to‘ldiruvchi qo‘shimcha mexanizm sifatida faoliyat olib boradi. Xususan, Ombudsman inson huquqlari bo‘yicha milliy qonunchilikni takomillashtirish, uni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga ko‘maklashish, shuningdek fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish yo‘nalishlarida ham faol ishtirok etadi. Har yili Ombudsman o‘z faoliyati va mamlakatdagi inson huquqlariga rioya etilishi holati yuzasidan Parlamentga rasmiy hisobot taqdim etadi[26]. Shu jihatdan, O‘zbekiston Ombudsmani fuqarolar huquqlarining beg‘araz va insonparvar himoyachisi sifatida parlament nazoratini amalga oshiruvchi muhim milliy institutdir.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tashkil etilgan bo‘lib, u inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda muvofiqlashtiruvchi maxsus davlat organi hisoblanadi[27:85]. Milliy markazning asosiy vazifasi – O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarini bajarish jarayonida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligini ta’minlash, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish hamda milliy hisobotlarni tayyorlashdan iborat. Markaz davlat organlariga inson huquqlari bo‘yicha milliy ma’ruzalarni tayyorlash, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalarining tavsiyalarini bajarishga qaratilgan milliy harakat rejalari (“yo‘l xaritalari”)ni ishlab chiqish va ularning ijrosini monitoring qilishda ko‘maklashadi

Jumladan, mazkur Markaz BMTning inson huquqlari bo‘yicha tuzilmalariga O‘zbekiston milliy ma’ruzalarini tayyorlab taqdim etishda bosh koordinatsion rol o‘ynaydi. Markaz har yili O‘zbekiston Prezidenti, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasiga mamlakatning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlari bajarilishi holati to‘g‘risida maxsus axborot kiritadi. Shuningdek, Markaz aholining huquqiy savodxonligini oshirish, inson huquqlari masalalarida ilmiy tadqiqotlar va nashriyot ishlarini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Ta’kidlash joizki, Milliy markaz O‘zbekistonning milliy preventiv mexanizmi subyekti sifatida jazoni ijro etish muassasalari va vaqtincha saqlash joylariga muntazam monitoring tashriflari uyushtirib, qiynoqlarning oldini olishga ham salmoqli hissa qo‘shmoqda. Umuman olganda, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash va xalqaro standartlarni implementatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi.

Prezident huzuridagi Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) instituti 2017-yilda tashkil etilib, u tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ixtisoslashgan milliy tuzilmadir. Biznes-ombudsman tadbirkorlarning davlat organlari yoki

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mansabdor shaxslar tomonidan huquqlari buzilganda, ularning murojaatlarini ko‘rib chiqadi va aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rishni ta’minlaydi[28:87]. Ushbu lavozim O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida tashkil etilgan bo‘lib, uning huquqiy maqomi maxsus Qonun bilan mustahkamlangan. 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi Qonun Biznes-ombudsman faoliyatini BMTning Parij prinsiplari talablariga muvofiq yo‘lga qo‘yishga xizmat qilgan. Mazkur institut o‘z faoliyatini mustaqil amalga oshirib, adolat, oshkoralik va qonuniylik prinsiplari asosida tadbirkorlarning huquqiy himoyasini ta’minlaydi. Biznes-ombudsman apparati dastlab 8 nafar xodim bilan ish boshlagan bo‘lsa, keyinchalik uning tuzilmasi kengayib, bugungi kunda hududiy bo‘linmalar orqali respublika miqyosida faoliyat ko‘rsatmoqda. 2019 va 2022-yillardagi islohotlar natijasida Biznes-ombudsmanga ayrim ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish va jarima qo‘llash vakolati ham berildi – xususan, tadbirkorlarning huquqlarini buzishga doir 9 turdagi huquqbuzarlik bo‘yicha ma’muriy jazo tayinlash huquqi vakilga qonunan taqdim etildi. Bu o‘z navbatida, tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini tezkor va samarali himoya qilish imkonini oshirib, biznes sohada huquqiy kafolatlarni mustahkamladi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ham yangi institut joriy etildi. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan Ombudsman o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil (Bolalar ombudsmani) lavozimi tashkil etildi[29:91]. Ushbu vakilning asosiy vazifalari bolalar va ularning vasiylariga o‘z huquq va erkinliklarini tushuntirish, bolalarning huquqlari buzilishi to‘g‘risidagi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, bola huquqlariga doir qonunlar ijrosini nazorat qilish hamda davlat organlari faoliyatida bolalar huquqlariga rioya etilishini monitoring qilishdan iboratdir. Bola huquqlari bo‘yicha vakil o‘z faoliyatini Ombudsman singari mustaqil hamda hech bir davlat organiga bo‘ysunmagan holda amalga oshiradi. U Oliy Majlis palatalarining roziligisiz javobgarlikka tortilishi yoki ushlab turilishidan daxlsizlik huquqiga ega bo‘lib, faqat Bosh prokuror sanksiyasi bilan uning faoliyatiga oid tergov harakatlari olib borilishi mumkinligi qonun bilan kafolatlangan. Bolalar ombudsmani huzurida jamoatchilik kengashi tuzilib, fuqarolik jamiyati vakillari ishtirokida bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Ushbu yangi institut bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni yanada kuchaytirishga xizmat qilib, milliy inson huquqlari tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar va global huquqiy tendensiyalarning uzviy sintezi asosida shakllanmoqda. Xususan, Konstitutsiyada

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

“inson qadri” konsepsiyasining markaziy o‘rin egallashi, inson huquqlarini nafaqat huquqiy me’yor sifatida, balki siyosiy va ijtimoiy ustuvorlik sifatida tan olinishini bildiradi. Bu yondashuv milliy huquqni universal qadriyatlar bilan integratsiyalashuvini aks ettiradi.

Qolaversa, inson huquqlari sohasidagi davlat organlari faoliyatida bir qator kamchiliklar va ularga yechim sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Milliy institutlarning inson huquqlari borasidagi faoliyati yuridik jihatdan mustahkamlangan, biroq ularning faoliyat samaradorligi fuqarolik jamiyatining institutsional faolligi bilan bevosita bog‘liq. Demak, inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda fuqarolarning huquqiy ongi, ommaviy axborot vositalari orqali oshiriladigan yondashuvlar va ombudsmanlar institutining vakolat doirasini kengaytirish ilmiy-nazariy asoslashni talab qiladigan ustuvor yo‘nalishdir.

Ichki ishlar idoralarining inson huquqlari madaniyatini shakllantirishdagi amaliy roli yangicha tizimlashuvni talab qiladi. Amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan treninglar, kasbiy etikani mustahkamlash, va zamonaviy huquqiy savodxonlik modullarini ishlab chiqish orqali bu soha xodimlarining inson huquqlariga bo‘lgan yondashuvi transformatsiyalanadi.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning o‘zaro integratsiyalashuvi orqali samarali monitoring va baholash tizimi shakllantirilishi kerak. Bu orqali ularning takrorlanuvchi funksiyalari optimallashtiriladi, resurslardan maqsadli foydalanish va tezkor javob qaytarish imkoniyati yaratiladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni milliy xizmat reglamentlariga kiritish tizimlashtirilishi lozim. Bu huquqbuzarliklarning oldini olish, xizmat faoliyatida adolat va javobgarlik tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga O‘zbekiston inson huquqlarini ta’minlash yo‘lida sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, idoralararo hamkorlikning amaliy bo‘shliqlari mavjud tizimning to‘laqonli ishlashiga imkon bermayapti. Mazkur taklif etilgan elektron integratsiya, majburiy hisobot mexanizmlari, hududiy reyting tizimi, sertifikatsiya va to‘liq video-fiksatsiya - inson huquqlarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini kuchaytirishga qaratilgan, ammo amaliyotda hali joriy qilinmagan innovatsion konseptlardir.

Bizning fikrimizga ko‘ra, davlat organlari hamkorligini kuchaytirishning eng samarali yo‘li - mavjud institutlarni qayta tuzish emas, balki ularga zamonaviy raqamli, majburiy va javobgarlikka asoslangan mexanizmlarni qo‘shishdir. Ana shundagina inson huquqlarini himoya qilishning real natijaviy modeli shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. — 14-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. — 54-modda.
3. Komilov N. O‘zbekiston huquqiy siyosatining insonparvarlik yo‘nalishi // TDYU Ilmiy axborotnomasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021. – № 3. – B. 12–20.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. — 105-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni.
6. 2020-yil 22-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6012-son Farmoni bilan “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi” qabul qilindi.
7. Инсон ҳуқуқлари [Матн] : Парламент аъзолари учун қўлланма. – Тошкент: Baktia press, 2019. – 284 б. Б-113.
8. Инсон ҳуқуқлари [Матн]: Парламент аъзолари учун қўлланма. – Тошкент: Baktia press, 2019. – 284 б. Б-116.
9. Инсон ҳуқуқлари [Матн]: Парламент аъзолари учун қўлланма. – Тошкент: Baktia press, 2019. – 284 б. Б-119.
10. Инсон ҳуқуқлари [Матн]: Парламент аъзолари учун қўлланма. – Тошкент: Baktia press, 2019. – 284 б. Б-121.
11. Инсон ҳуқуқлари [Матн]: Парламент аъзолари учун қўлланма. – Тошкент: Baktia press, 2019. – 284 б. Б-121.
12. Инсон ҳуқуқлари [Матн]: Парламент аъзолари учун қўлланма. – Тошкент: Baktia press, 2019. – 284 б. Б-124.
13. Инсон ҳуқуқлари [Матн]: Парламент аъзолари учун қўлланма. – Тошкент: Baktia press, 2019. – 284 б. Б-126-131.
16. Steiner, H., Alston, P. International Human Rights Law. – Oxford University Press, 2020.
17. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuni.
18. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni.
19. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni.
20. Ички ишлар идоралари ходимларида инсон ҳуқуқлари маданиятини шакллантириш. Монография. – Тошкент: «Наврўз», 2016. – 156 б. Б-7.
21. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va malaka oshirish tizimi to‘g‘risidagi nizom, 2020-yil 28-aprel, Adliya vazirligida 3221-son bilan ro‘yxatga olingan.
22. “Elektron IIB” axborot tizimi haqida IIV rasmiy bayonoti, 2021-yil 15-oktabr. www.iiv.uz/uz/news
23. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi: “Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini ta’minlashda jamoatchilik nazorati” (hisobot, 2022-yil).
24. Karimova, Z. (2022). O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta’minlashning institutsional asoslari. – Toshkent: TDYU

nashriyoti, 118–121-betlar.

25. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida Qonun (yangi tahriri). — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonun hujjatlari to‘plami, 2021-yil 25-fevral, № 9.

26. https://lex.uz/ru/docs/-2749678#:~:text=O%CA%BBzbekistonda%20inson%20va%20fuqarolarning%20konstitutsiyaviy,amalga%20oshirilgan%20axborot%20almashuviga%20asoslanadi

27. Rustambayev M.X. va boshq. Inson huquqi: Darslik. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023. – 440 b. B-85.

28. Rustambayev M.X. va boshq. Inson huquqi: Darslik. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”. 2023. – 440 b. B-87.

29. Rustambayev M.X. va boshq. Inson huquqi: Darslik. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023. – 440 b. B-91.